

LYAMBLOZ KASALLIGINING KLINIKASI VA DIAGNOSTIKASI**Yu. A. Abdullayeva***Samarqand davlat tibbiyot universiteti 2-davolash fakultetining talabasi***N.A. Ruziqulova***b.f.f.d. (PhD), Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

Lyambloz-bolalar va kattalar orasida keng tarqalgan protozoy infeksion kasallik bo'lib, me'da-ichak trakti va gepatobiliar tizim a'zolari yallig'lanish belgillari bilan tavsiflanadi. Lyamblozni ichak lyambliyasi (*Lamblia (Giardia) intestinalis*) keltirib chiqaradi. Ushbu kasallik O'zbekistonda keng tarqalgan kasallik hisoblanadi. Ichak lyambliyasi ingichka ichakda, ba'zan o't pufagida parazitlik qiladi.

Maqsad. Lyamblozning kasalligining klinikasi va diagnostikasi o'rGANISH.

Material va metodika. Tadqiqot materiali turli yoshdagi bemorlar hisoblanadi. Tashxis axlat va o'n ikki barmoqli ichak shirasining tarkibini mikroskopik tekshirish orqali aniqlash orqali qo'yiladi (1-rasm). Laboratoriya diagnostikasining eng samarali usuli o'n ikki barmoq ichak tarkibidagi trofozoitlarni aniqlashdir. Vegetativ shakllari o'n ikki barmoqli ichak shirasida uchraydi. Zich shakllangan axlatda faqat sistalar, suyuq axlatda esa sistalar bilan birga vegetativ shakllar ham uchraydi.



1-rasm. *L. intestinalis* ning mikroskopik diagnostikas

A - trofozoit (Romanovskiy-Giemsa bo'yicha bo'yalgan ichak shilliq qavatining izi preparati), B - sista (Lyugol eritmasi bilan bo'yalgan ho'l preparat

Tadqiqot natijalari. Ichak lyambliyasing vegetativ shakli (trofozoit) noksimon bo'lib, sitoplazmaSIga botib kirgan 4 juft xivchin mavjud. Ularning oldingi yuzasida 2 ta yadro joylashgan. Parazitni yuqtirish omillari iflos qo'llar, suv, lyambliya sistalar bilan ifloslangan oziq-ovqat hisoblanadi. Lyambliya sistalarining tarqalishiga hasharotlardan (chivinlar, suvaraklar, un qurtlari, go'ng qo'ng'izlari) roli katta. Sistalarning yuqumlilik dozasi 10-100 sistadan iborat. Sistalar og'iz orqali o'n ikki barmoqli ichakka kirib, vegetativ shaklga aylanadi va ichak devoriga yopishadi. Keyin parazit ingichka ichakning proksimal qismidan o'rta yoki distal qismlariga o'tadi. Sistalarning shakllanishi ingichka ichakning distal qismida va yo'g'on ichakda sodir bo'ladi va 12-14 soat davom etadi. Xo'jayin ichagidan tashqi muhitga sistalar chiqadi.

Klinikasi. Lyambliozining o'tkir davri diareya, ko'ngil aynishi, anoreksiya, qorin sohasidagi o'tkir og'riqlar, qorinning dam bo'lishi bilan namoyon bo'ladi. Bemorlarda bosh og'rig'i, vazn yo'qotish va charchoqning kuchayishi haqida shikoyatlar tez-tez uchraydi. Lyambliyaning inson organizmida uzoq muddat parazitlik qilishi jigar va ichaklarning faoliyatning buzilishini keltirib chiqaradi. Lyambliya ichak epiteliysini mexanik zararlaydi. Ichakning shilliq yuzaziga parazitning ko'p marta yopishishi va ajralishi natijasida glikokaliks zararlanadi. Ingichka ichakning shilliq qavati va glikokaliksni zararlanishi natijasida patogen mikroflora faollashadi. Lyambliyalarning o'n ikki barmoq ichak va ingichka ichakda parazitlik qilishi natijasida uglevod, oqsil, yog'lar, vitaminlar, mineral moddalar va mikroelementlarning surilishi buziladi. Ayniqsa, yog'da eriydigan vitaminlarning surilishi, foliy kislotasi, riboflavin, tiamin va siyanokobalamin almashinuvi izdan chiqadi hamda qon plazmasida vitamin C va A ning konsentrasiyasi pasayib ketadi.

Xulosalar. Lyambliozi oldini olish yo'llariga tashqi muhit, oziq-ovqat, suvning axlat bilan ifloslanishining oldini olish. shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, mexanik tashuvchilarni yo'q qilish (chivinlar va suvaraklar) kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akhatova G. A., Ruzikulova N. A. Helminthous diseases and their prophylaxis // Novosti obrazovania: issledovanie v XXI veke. - 2024. - T. 2. – no. 19. – S. 222-223.
2. Djamilova M.D., Sanoeva M.F., Ruzikulova N.A. Cutaneous leishmaniosis-symptoms and prophylaxis //Nauchnyy zurnal v meditsine i jizni. - 2024. - T. 2. – no. 3. - S. 123-125.
3. Sanoeva M.F., Djamilova M.D. Ruzikulova N.A. "Diagnostics of parasitic diseases". Novosti obrazovaniya: issledovanie XXI veka 2.19 (2024): 315-316.
4. Козлов С.С., Сергиев В.П., Лобзин Ю.В. Паразитарные болезни человека. Протозоозы и гельментозы. Издательство: Фолиант (мед), 2016 г. 639 С.